

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “BAXSH ETADI DILGA OROMLAR” SHE’RI BADIY-G’OYAVIY TAHLILI

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg o‘zbek va rus adabiyotini bir biriga bog‘lab turgan betakror va iste‘dodli adabiyot namoyondasidir. U garchi o‘z onatili, rus tilida asarlarini bitgan bo‘lsa-da, uning asarlarida jo bo‘lgan g‘oyalar, o‘xshatishlar, dunyo qarash, tafakkur, ruhiy olam O‘zbekiston hayoti, Toshkent manzaralari, milliy qadriyat va urf-odatlar bilan uyg‘unlikni kasb etgan, chambarchas bog‘langan. Shoir ijodiga ixlosmand har bir muxlis biladiki, undagi samimiyat, sodda hayot manzaralariga kuchli mehr, inson qalbi va ruhiga yaqin tasvirlar va chuqur falsafiy xulosalar kitobxonga nafaqat badiiy-estetik zavq beradi, balki ularni hayot tajribasi bilan ham ta‘minlaydi. Faynberg she‘riyatining boshqa ijodkorlarnikidan farqli jihati shundan iboratki, u tasvirlab bermoqchi bo‘lgani xoh yirik tarixiy voqea bo‘lsin, xoh oddiy kundalik turmushda sodir bo‘lgan hodisa manzarasi bo‘lsin ularning hammasiga bir xil mehr va mas‘uliyat bilan yondashib so‘zdan haqiqiy san‘at asarini yaratadi va shu bilan bir o‘qishdayoq o‘quvchi qalbi va ruhini o‘ziga rom qiladi, ashaddiy muxlisiga aylantiradi. Uning nazarida hayotning ulug‘vorligi muhtasham sahnalarda emas, balki hovli, choyxona, tandir noni, bog‘ va tog‘ manzaralarida yashaydi. Shoir ko‘pincha bolalikning o‘sha beg‘ubor xotiralari, osoyishta turmush tarsi hamda xalqona milliy muhitni tavirlash orqali o‘quvchini ma‘naviy poklik, ruhiy halovat olishga da‘vat etadi. Shoirning hayot va insonga bo‘lgan qarashlari ijobiy ruh bilan sug‘orilgan. U tirikchilik uchun qilinayotgan tashvishlarni og‘ir yuk sifatida emas, hayotning ajralmas va hatto zavqli qismi deb hisoblaydi. Mehnat, oila davrasi, dasturxon atrofidagi iliqlik-bularning barchasi uning she‘riyatida baxt timsoliga

aylanadi. Shu bois, Faynberg ijodini o'qir ekanmiz, undagi ichki sokinlik, hayotdan rozilik va samimiy minnatdorlik ohangini sezamiz. Faynberg qalamiga mansub "Baxsh etadi dilga oromlar..." misralari bilan boshlanuvchi she'r ham shoirning ana shu poetik qarashlarini o'zida jamlagan. Asarda tabiat manzaralari, milliy turmush tazsi, oilaviy hayot va kundalik yumushlar beqiyos darajadagi mahorat bilan uyg'unlashtirilgan. Mazkur maqolada yuqorida keltirganimiz "Baxsh etadi dilga oromlar..." she'rining badiiy-g'oyaviy tahliliga asoslangan.

**Abstract:** Alexander Arkadyevich Feinberg is a unique and talented literary figure who connects Uzbek and Russian literature. Although he wrote his works in his native Russian, the ideas, similes, worldview, thinking, and spiritual world in his works are in harmony with the life of Uzbekistan, the landscapes of Tashkent, national values, and traditions. Every fan of the poet's work knows that his sincerity, strong love for simple scenes of life, images close to the human heart and soul, and deep philosophical conclusions give the reader not only artistic and aesthetic pleasure, but also provide them with life experience. What distinguishes Feinberg's poetry from that of other creators is that whether he is trying to describe a major historical event or a scene of an ordinary everyday event, he has a common theme for all of them. With a special love and responsibility, he creates a real work of art from words, and thus, at the very first reading, he captivates the heart and soul of the reader, turning them into ardent fans. In his eyes, the magnificence of life does not reside in magnificent scenes, but in the courtyard, teahouse, tandoor bread, garden and mountain landscapes. The poet often invites the reader to spiritual purity and spiritual pleasure by depicting those innocent memories of childhood, a peaceful lifestyle and a folk national environment. The poet's views on life and man are imbued with a positive spirit. He considers the worries about making a living not as a heavy burden, but as an integral and even enjoyable part of life. Work, family circle, warmth around the table - all these become symbols of happiness in his poetry. Therefore, when we read Feinberg's work, we see the inner We feel the tone of tranquility, satisfaction with life, and sincere gratitude. The poem, which begins with the lines "Gives the heart peace...", written by Feinberg, also embodies the poet's poetic vision. The work combines natural

landscapes, national life, family life, and everyday chores with unparalleled skill. This article is based on the artistic and ideological analysis of the poem "Gives the heart peace..." that we have cited above.

**Аннотация:** Александр Аркадьевич Файнберг — уникальная и талантливая литературная фигура, связывающая узбекскую и русскую литературу. Хотя он писал свои произведения на родном русском языке, идеи, сравнения, мировоззрение, мышление и духовный мир в его творчестве гармонично сочетаются с жизнью Узбекистана, пейзажами Ташкента, национальными ценностями и традициями. Каждый поклонник творчества поэта знает, что его искренность, сильная любовь к простым жизненным сценам, образы, близкие человеческому сердцу и душе, и глубокие философские выводы дарят читателю не только художественное и эстетическое наслаждение, но и жизненный опыт. Что отличает поэзию Файнберга от поэзии других творцов, так это то, что, независимо от того, описывает ли он крупное историческое событие или сцену из обыденной повседневной жизни, у всех его произведений есть общая тема. С особой любовью и ответственностью он создает из слов настоящее произведение искусства, и таким образом, уже при первом прочтении, пленяет сердце и душу читателя, превращая его в преданного поклонника. В его глазах величие жизни заключено не в великолепных сценах, а во дворе, чайном домике, тандыре, саду и горных пейзажах. Поэт часто приглашает читателя к духовной чистоте и наслаждению, изображая невинные воспоминания детства, мирный образ жизни и народную национальную среду. Взгляды поэта на жизнь и человека проникнуты позитивным духом. Он рассматривает заботы о заработке не как тяжелое бремя, а как неотъемлемую и даже приятную часть жизни. Работа, семейный круг, тепло за столом — все это становится символами счастья в его поэзии. Поэтому, читая произведения Файнберга, мы видим внутренний мир, чувствуем спокойствие, удовлетворенность жизнью и искреннюю благодарность. Стихотворение, начинающееся со строк «Дарит сердцу покой...», написанных Файнбергом, также воплощает поэтическое видение поэта. Произведение с непревзойденным мастерством сочетает в себе природные пейзажи, национальную

жизнь, семейную жизнь и повседневные дела. Данная статья основана на художественно-идеологическом анализе стихотворения «Дарит сердцу покой...», которое мы цитировали выше.

**Kalit so'zlar:** lirika, hayot falsafasi, хотира motivi, bolalik sog'inchi, tabiat va inson uyg'unligi, qishloq manzarasi, milliy turmush tarzi, choyxona madaniyati, tandir non timsoli, dasturxon barakasi, oila qadriyati, mehnat va tirikchilik, ma'naviy orom, oddiylik estetikasi, poetik obraz, badiiy detal, o'xshatish, ruhiy sokinlik, minnatdorlik tuyg'usi, maishiy realizm, milliy ruh, inson va tabiat birligi, samimiyat, hayotga muhabbat.

**Key words:** lyrics, philosophy of life, motif of memory, childhood nostalgia, harmony of nature and man, rural landscape, national lifestyle, teahouse culture, tandoor symbol of bread, blessing of the table, family values, work and livelihood, spiritual peace, aesthetics of simplicity, poetic image, artistic detail, simile, spiritual tranquility, sense of gratitude, everyday realism, national spirit, unity of man and nature, sincerity, love of life.

**Ключевые слова:** Текст песни, философия жизни, мотив памяти, ностальгия по детству, гармония природы и человека, сельский пейзаж, национальный образ жизни, культура чайных домиков, тандыр как символ хлеба, благословение стола, семейные ценности, труд и средства к существованию, духовный покой, эстетика простоты, поэтический образ, художественная деталь, сравнение, духовное спокойствие, чувство благодарности, повседневный реализм, национальный дух, единство человека и природы, искренность, любовь к жизни.

Aleksandr Arkadevich Faynberg mahoratli so'z ustasi, o'z asarlarida O'zbekiston tabiatini, o'zbek xalqi turmush tarsi, milliy urf-odatlarini kuylagan ijodkorlardan. Shoir shu qadar o'z sohasining ustasiki, oddiy tabiat manzaralari tasviri zamirida chuqur falsafiy fikr-mulohazalarni jo eta olgan. Faynberning "Baxsh etadi dilga orom..." misraalri bilahi she'ri ham shunday professionalizm namunalaridandir. Unda shoir hayotga bo'lgan mehr, oddiylikdagi baxt, хотирalar haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. She'rdagi tasvirlarning tabiiyligi, o'qishga qulay sodda tilda yozilganligi hamda nozik mubolag'a va

o'xshatishlardan foydalanilganligi uning har qanday yoshdagi kitobxonlarga manzur bo'lishiga sabab bo'ladi.

She'r "Baxsh etadi dilga oromlar, Boqsang tabiatning ro'yiga" misraalri bilan boshlanadi. Bu satrlarda asarning asosiy ruhi jo bo'lgan. Unda inson ruhiyati bilan tabiat go'zalligi o'rtasidagi uyg'unlik ko'rinadi. Tabiat bu- orom manbai. Tabiatga boqish ichki tinchlikka erishish demakdir. "Toshkulbalar, loysuvoq tomlar, Chopib chiqar daryo bo'yiga" bo'yida satrlarida esa haqiqiy tabiat manzaralari jonlangandek bo'ladi. Misralarda ishlatilgan "toshkulbalar, loysuvoq tomlar", "daryo bo'yi" kabi milliy turmush tarzi lavhalari o'quvchi ko'z o'ngida jonlangandek bo'ladi.

Baxsh etadi dilga oromlar,

Boqsang tabiatning ro'yiga.

Toshkulbalar, loysuvoq tomlar

Chopib chiqar daryo bo'yiga.

Keyingi badda Faynberg hayotbaxshlik va xalqona ruhni ko'rsatib beradi. "Choyxonachi choy damlar mashhur, Tiriltirar Mahsibek jonni" choy oddiy ichimlik ma'nosini yo'qotib, ramzilikni kasb etadi. "Mahsibekni tiriltirar" jumlasida juda kuchli badiiy o'xshatish bo'lib choyning tetiklashtirish, chanqoqni yozish va kayfiyatni ko'tarish xususiyatlariga ishora qilish maqsadida ishlatilgan. Bu o'rinda choy kundalik ichimlik emas, hayot quvvati, ruhiy yangilanish timsolidir. Bu barcha tasvirlar asnosida milliy turmushdagi an'analar poetik darajaga olib chiqiladi. "Piyolada porlagan ko'k nur, Yondiradi moviy osmonni" satrlariga kelib milliylik tasviriga urg'u kuchayadi, tasvir kengayadi. Piyoladagi choy jilvasining "kok nur" ga qiyoslanishi ham yana bir nafis o'xshatishdir. Bu o'xshatish orqali shoir piyolani osmonga o'xshatadi. Go'yoki kichik bir piyoladagi nur butun bir osmonni yondirayotganday. Bundan kelib chiqadiki, hayotning mayda, odatiy lahzalarida ham aql bovar qilmas go'zallik yashirin bo'lishi mumkin ekan. Shoir soddalikni ulug'lab, kichik lahzalarda katta ma'nolar yashirinligini tushuntiradi.

Choyxonachi choy damlar mashhur,

Tiriltirar Masihdek jonni.

Piyolada porlagan ko‘k nur

Yondiradi moviy osmonni.

She‘r davomida oddiy hayot go‘zalligi va mehnatning qadri ulug‘lanadi. Bo‘ribosar itning chorbog‘ni qo‘riqlashi osoyishtalik va tartibning ifodasidir. Chorbog‘ esa baraka va tinchlik manbai. Bu manzara tasviri tinch va mehnatsevar hayotni chiroyli uslub bilan ta‘riflaydi. ”tinchlik tashvishi shirin” degan misra esa eng muhim g‘oyaviy nuqtalardan biri bo‘lib, shoir kundalik yumushlar og‘ir yuk emas, yashashning, nafas olishning mazmuni demoqchi. Insonni tirikchilik tashvishi toliqtirsa ham, hayotga qiymat va mazmun baxshida etadi. Kelin obrazining o‘choq boshida qozon osib, o‘tin tutatishi oila, baraka, an‘ana timsolidir. O‘choq- uy markazi, issiqlik va totuvlik ramzi. Bu tasvirlar baxt dabdabada emas, aynan oddiy hayot tarzida ekanligini ko‘rsatadi.

Bo‘ribosar posbon chorboqqa,

Tirikchilik tashvishi shirin.

Kelin qozon osib o‘choqqa,

Cho‘nqaygan cha tutatar o‘tin

Shoir oilaviy hayotni va milliy turmushni juda oddiy detallar bilan badiiy bo‘yoq berib tasvirlagan. ”Osha tokcha Lagan o‘sha, Xontaxtada to‘kin dasturxon” misralari oilaning naqadar farovonligini, uy hayotidagi osoyishtalikni ifodalagan. To‘kin dasturxon oilaviy iliqlik, mehmondo‘stlik va muruvvatni ko‘rsatadi. Shunday qilib tinchlik va osotishtalik ruhini shoir kitobxonga yetkazadi. ”To‘lin oyga o‘xshar hamisha harorat Harorati quyosh kabi non” misralarida shoir nonni ulug‘vor poetik obrazga aylantiradi. Non bu yerda nafaqat oziq-ovqat manbai, balki baraka, mehr va farovonlik timsoli sifatida

namoyon bo'ladi. Shoir nonning haroratini quyoshga qiyoslab, uning hayotdagi muqadda qiymatini ta'kidlaydi.

O'sha tokcha, laganlar o'sha,

Xontaxtada to'kin dasturxon.

To'lin oyga o'xshar hamisha

Harorati quyosh kabi non.

So'nggi bandda Faynberg xotira va falsafani markaziy mavzu sifatida ochib beradi. Shoir o'tmishidagi manzaralrni-qorli tog'lar, bog' va hovlini- eslaydi va ularni hayotda oddiy go'zallik sifatida talqin etadi. Shu bilan birga u vaqtning aniq raqamini Fqadriyat ekanini ko'rsatadi. Mazkur satrlar hayotning eng oddiy lahzalarida ham orom, osoyishtalik va samimiylik topish mumkinligini hamda xotira orqali hayot go'zalligini va boyligini qadrlash zarurligini o'quvchiga eslatadi.

Esimdadir barchasi, jami,

Qorli tog'lar. Bu go'zal hayot.

Daricha. Bog'. Hovli raqami...

Vaqt raqamin unutdim faqat.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri hayotning eng oddiy, lekin eng qadrdon jihatlarini ulug'laydi. Shoir tabiat, oilaviy muhit, milliy an'ana va kundalik mehnat orqali inson qalbiga huzur va orom beradi. Xotira va o'tgan hayot onlari umrning chinakam boyligi sifatida ko'rsatib beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>

4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to’plami
5. Karimova N. Adabiyot va tuyg’u estetiyesi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020
6. To‘xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.